

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSILIGI TARKIBIGA KIRITILGAN TABIAT MAVZUSIDAGI SHE'RLAR TAHLILI**

**To'raxojaeva Adibaxon**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Qo'qon davlat pedagogika instituti

**Jalilova Sevinchbonu**

Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada 4-sinf o'qish savodxonligi darsligida keltirilgan tabiat mavzusidagi she'rlar, ularning badiiy tahlili, o'qitish metodikalari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** darslik, to'rtlik, she'r, qofiya, tashbeh, tashxis, intoq, vazn, qish tasviri.

Ta'lim bu o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, bu jarayon shaxsning kamolotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Daslarda o'qituvchi o'z bilim, ko'nikma va malakalarini turli mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirish asnosida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu esa muayyan sohaga oid bilim va tajribaga ega bo'lish hisoblanadi.

Hammamizga ma'lumki, yangi 2023-2024 o'quv yili uchun mo'ljallangan bo'limlararo integratsiyalangan o'qish savodxonligi darsliklarining I II va III qismlari hozirda o'quvchilar tomonidan amalda qo'llanilmoqda. Mazkur darslik muallifi M. E. Toirova bo'lib, kitob o'quv choraklari bo'yicha 4 qismga bo'lingan.

O'qish savodxonligi darslari o'quvchida to'g'ri tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi idrokli kitobxon darajasiga ko'tarish, o'qish orqali ularning tevarak-atrof, tabiat, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish hamda kreativ fikrlash ko'nikmalarini egallash kabilarni nazarda tutadi. Shu sababli ham o'qish darslarida turli xil mavzulardagi turli janrlarga mansub bo'lgan asarlar o'qib o'rganiladi. O'qish savodxonligi darsligiga, asosan, hikoya, she'r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Bundan tashqari ilmiy-ommabop matnlar ham berilgan.

4-sinf o'qish savodxonligi darsligining dastlabki 1-, 2-, 3- qismlarida jami 23 ta she'r keltirilgan. Ulardan to'rttasi tabiat mavzusida yozilgan she'rlardir. Jumladan, Rauf Tolibning "Qanday go'zal bu olam", Quddus Muhammadiyning "Mimoza", Qambar otaning "Chang'i uchaman" va Nurullo Ostoning "Qorxat" she'rlari shu mavzuga oid asarlar sanaladi. Darslikning 3-qism, 4-sahifasida keltirilgan Rauf Tolibning "Qanday go'zal bu olam" she'ri 6 to'rtlikdan, ya'ni 24 satrdan iborat. Ushbu she'r darslikning 1-bo'limi, "Men va tabiat" dan olingan bo'lib, a-b-a-b tarzida qofiyalangan hamda 7 bo'g'inli barmoq vaznida yozilgan. Misralardagi bo'g'inlar soni oz bo'lganligi uchun vazni yengil, o'qilishi va yod olinishi oson. Shoir she'rda sodda va o'quvchilarga tushunarli so'zlarni qo'llagan. Masalan:

Yasharar, yashnar olam  
Jilo berar o'ziga  
Hattoki maysalar ham  
Boshqachadir ko'zimga[1]

Bu to'rtlikda tashxis, ya'ni jonlantirish san'atidan foydalanilgan. Olamning o'ziga jilo berishi tasviri orqali insonga xos harakat predmetga ko'chirilgan. Olamham, o'ziga-ko'zimga so'zlari esa o'zaro qofiyadoshlikni hosil qilgan.

Hadya etadi bog'lar  
Menga bir olam qo'shiq  
Shamol meni quchoqlar  
Yur, deb maqsadga oshiq[2]

Bu satrlardagi bog'larning qo'shiq hadya etishi hamda shamolning bolani quchoqlashi kabi tasvirlarda ham tashxis san'ati mavjud. Shamolning "Yur" deb bolaga so'zlashi intoq, ya'ni gapirtirish san'atini hosil qilgan. To'rtlikdagi bog'larquchoqlar, qo'shiq-oshiq so'zlari qofiyadosh so'zlardir.

Urilib toshdan toshga,  
Oqadi tog' suvlari.  
Yo'q, u qalbidan toshgan  
Hislarim, tuyg'ularim.[3]

Bu to'rtlikda toshdan-toshga hamda toshgan so'zlarining asos qismi shakldosh so'zlar bo'lib, ulardan foydalanish bilan shoir tajnis san'atini hosil qilgan. Tog' suvlarining hislar va tuyg'ularga o'xshatilishida esa tashbeh san'ati bor. Toshga-toshgan, suvlari-tuyg'ularim o'zaro qofiyadoshlikni ko'rsatadi.

Darslikning uchinchi qism, birinchi "Men va tabiat" bo'limi, 21-sahifasida keltirilgan Quddus Muhammadiy qalamiga mansub bo'lgan "Mimoza" she'rida shoir oddiygina o'simlikning xususiyatlarini san'at darajasiga ko'tara olgan. She'r 7 bo'g'inli barmoq vaznida yozilgan, jami 27 misradan iborat. She'r misralari o'zaro a-a; b-b; v-v tarzida qofiyalangan. Unda uyatchan-chang, mimoza-toza, darrov-yasov kabi so'zlar o'zaro qofiyalanib kelgan.

O'qituvchi bu dars jarayonida she'rni bolalarga o'qitishdan avval, mimoza aslida nima ekanligi, uning tabiiy biologik xususiyatlari, ko'rinishi haqida bolalarda qisman tasavvur paydo qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mimoza-burchoqdoshlar oilasiga mansub o'simlik turkumi, qo'sh patsimon murakkab bargli va mayda gulli bo'ladi. Amerikada bu o'simlikning 450-500 turi bor. Uyatchan mimoza barglari kechasi yoki unga qo'l tegishi bilan juft-juft bo'lib yumilib, bir ozdan so'ng yana ochiladi.[4]

Birinchi badda o'tning uyatchanligi shunday tasvirlanganki, tabiati nurdek toza bo'lgan uyatchan qiz hayolingizga keladi.

Unga sen tegar-tegmas,  
O'sha on, o'sha nafas  
Barg ko'zin yumib olar,  
Qovog'in uyib olar.[5]

Yuqoridagi misralarda mimoza o‘simligining unga nisbatan tashqi ta‘sir bo‘lganda patdek barglarini yopib olishini shoir gulning qovog‘ini uyishi deya tasvirlagan. Va bu o‘rinda betakror o‘xshatish yaratgan.

She‘rning keyingi misralarida ham shoir o‘z mahoratini ayamay sochgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Hasharot, shum ucharni,  
Yalmog‘iz qon icharni-  
Tutib oladi darrov,  
Tekinxo‘rni qilar ov.  
Barglari bo‘lib yasov,  
Mimoza-yashil posbon.[6]

Bu bilan shoir mimozani tozalik posbonlari, ya‘ni sanitarlarga o‘xshatadiki, ikkalasining ham vazifasi bir-tozalikdir.

Darslikning ikkinchi qism, uchinchi “Rosa maza qish, qorlari-kumush” deb nomlangan bo‘limining 76-sahifasida keltirilgan “Qorxat” she‘rini olaylik. Bu she‘r ham sodda, yodlash uchun oson, barmoq vaznida yozilgan, a-a-b-b tarzida qofiyalangan, 2 banddan iborat.

Qor sepalab yog'ardi,  
Qum tepalar oqardi.  
Gullab ketdi archalar,  
Kuylab ketdi qarg'alar.[7]

Bu bandeda yog‘ardi-oqardi, archalar-qarg‘alar so‘zlari o‘zaro qofiyadosh. She‘r ifodali o‘qish uchun berilgan. Qor yog‘ganda tabiatdagi bo‘ladigan o‘zgarishlar shoirona topqirlik bilan tasvirlangan. Bilamizki, qishda ham yozda ham yashil rangli bir xil kiyimda bo‘lgan archalar qor parchalarni yig‘ib qoladi. Daraxt ustida turib qolgan oppoq qor esa huddi daraxt gullariga o‘xshatilyapti. Bu o‘rinda shoir o‘xshatish sa‘atidan foydalangan.

Darslikning ikkinchi qismi, uchinchi bo‘limida, 57-58-sahifalarda keltirilgan Qambar otaning “Chang‘i uchaman” she‘ri ham alohida e‘tiborga loyiq. Bolalarcha soddalik bilan yozilgan bu quvnoq she‘r 4 banddan, 16 satrdan iborat. Barmoq vaznida yozilgan bo‘lib, bir satrda 8 bo‘g‘in mavjud. 4+4 shaklida turoqlangan.

Meni pastga olib uchar,  
Go‘yo qushdek g‘olib uchar.  
Tog‘ning usti yumshoq pardek,  
Toshlarida sehr bordek.[8]

Bu to‘rtlikda olib uchar-g‘olib uchar, pardek-bordek so‘zlari o‘zaro qofiyadoshlikni hosil qilgan. She‘r shu qadar samimiy yozilganki, bu to‘rtlikni o‘qish barobarida bola chang‘i uchishdagi maroqni his qilmay qolmaydi. Bu qismda tashbeh san‘atidan foydalanilgan, chang‘i qushga, tog‘dagi qorlar momiq va yumshoq parga o‘xshatilgan.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.Toirova M.E. O‘qish savodxonligi (4-sinf, 3-qism darslik) –Toshkent, 2023,-B.4.
- 2.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 3.Toirova M. E. O‘qish savodxonligi (4-sinf, 2-qism darslik) –